

Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida, Navoiy viloyatida jami 2 409,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	2 409,1	109,9
Navoiy sh	280,8	117,7
Zarafshon sh	163,7	77,6
G'ozg'on sh	2,2	135,3
Konimex tumani	31,7	103,2
Qiziltepa tumani	324,1	102,8
Navbahor tumani	133,1	119,8
Karmana tumani	140,4	99,1
Nurota tumani	109,5	56,9
Tomdi tumani	235,8	290,6
Uchquduq tumani	113,9	316,3
Xatirchi tumani	135,0	104,0

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,4 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,6 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 152,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	307,5	232,2	5,3
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>132,2</i>	<i>159,9</i>	<i>127,8</i>
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	524,8	211,0	129,2
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>95,4</i>	<i>106,4</i>	<i>154,0</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	999,1		
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>102,2</i>		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 545,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 142,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 5,1 % ga ko'payib, 22,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 35,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etgan holda 865,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 41,5 % ni yoki 999,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Navoiy viloyati	545,0	865,0	999,1	142,7	103,9	102,2
Navoiy sh	52,1	197,3	31,4	200,8	108,5	102,0
Zarafshon sh	-	143,1	20,6	-	104,6	93,4
G'ozg'on sh	-	-	2,2	-	-	134,0
Konimex tumani	5,9	9,4	16,4	89,5	104,4	108,6
Qiziltepa tumani	104,4	135,2	84,5	167,4	79,4	102,4
Navbahor tumani	12,2	82,0	38,9	96,8	134,5	103,5
Karmana tumani	10,8	49,1	80,5	102,6	93,5	102,4
Nurota tumani	13,7	42,1	53,7	14,6	92,2	103,2
Tomdi tumani	200,7	33,4	1,7	269,3	688,9	93,3
Uchquduq tumani	86,2	9,2	18,5	1107,5	103,4	95,2
Xatirchi tumani	12,4	31,7	90,9	162,8	93,0	103,1

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uchquduq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 1107,5%), Tomdi tumanida (269,3%) va Navoiy shaharda (200,8%) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Tomdi tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 688,9%), Navbahor tumanida (134,5%) va Navoiy shaharda (108,5%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.



Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

M. Bahronov
79 223-54-73 (85-20)

Manzil:

